

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAVOYIY DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

Navoiy davlat universiteti

rektori

M.B.Kalonov

2025-yil

**EKOLOGIK MENEJMENT VA AUDIT
FANINING O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	500000- Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta'lim sohasi:	520000 – Atrof muhit
Mutaxassislik:	70520202 –Ekologiya

Navoiy- 2025

Fan/modul kodi EKMA1106	O'quv yili 2025 - 2026	Semestr I	ECTS – Kreditlar 6	
Fan modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Ekologik menejment va audit		60	120	180

I. Fanning mazmuni

Fanning maqsadi - magistrga fanning nazariy asosalari, qonuniyatlari va tamoyillari, asosiy vositalari, ekologik boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi, korxonalar menejmenti, strategik ekologiya menejmenti yo'nalishlari, ekologik menejmentning asosiy tushunchalarining ekologik iqtisodiy talqini, O'zbekistonda ekologik menejment va uni takomillashtirish, shuningdek, ekologik auditning asosiy tushunchalar, prinsiplari, standartlari, asosiy vazifalari, ekologik audit o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari, ekologik audit shakllari, ekologik audit to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik bo'yicha bilimlar berishdan iborat.

Fanning vazifasi - Ekologik menejment va auditning nazariy ilmiy asoslarini ochib berish, ekologik-huquqiy dunyoqarash va madaniyatni shakllantirish, chuqur ekologik-iqtisodiy fikrlash, tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish, mustaqil va ilmiy asoslangan fikr-mulohazalarini, xulosalarini, tavsiyalarini aniq bayon etishga o'rgatish, ekologik menejment va auditning amaliy muammolari yechimini topishda yetarli darajada nazariy metodologik asoslarni egallash, mavjud ekologik vaziyatni hududiy xususiyatlarini hisobga olib ularga mos ekologik menejment va audit yo'nalishlarini amalga oshirish ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish, ekologik boshqaruv va audit sohalarini yetuk mutaxassislar bilan ta'minlashdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Ekologik menejment va audit tushunchasi, maqsadi va vazifalari. Davlat boshqaruvi tarixi. Ekologik menejment va audit fanining predmeti, o'ziga xos xususiyatlari va prinsiplari. O'zbekistonning ekologik siyosati. Atrof tabiiy muhitni huquqiy muhofaza qilish zarurati.

2- mavzu. Iqtisodiy rivojlanish va tabiiy resurslar. Iqtisodiy manbalar. Resurslarning o'zgarishi va rivojlanish. Tabiiy resurslarning ahamiyati, ularning tugashi, Resurslarni tejash muammolari, ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilari, amalga oshirish zarurati. Ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va joylashtirishda resurs-ekologik yondashuv. BMTning atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi deklaratsiyasi. Jahon bozorining shakllanishi, sotiladigan ekologik aktivlar va majburiyatlar.

3-mavzu. Atrof-muhitni boshqarishning xorijiy va xalqaro standartlari Atrof-muhitni boshqarish tizimlari uchun bir qator xalqaro standartlar - ISO 14000 (ISO 14001 dan ISO 14064 gacha). Amalga oshirishdan korxonalar tomonidan olingan foyda. Atrof-muhitni boshqarish tizimlari, uni yaratish uchun xarajatlar manbai va miqdori. ISO 14000 bo'yicha hal qilinmagan muammolar, takomillashtirish yo'llari, normativ hujjatlar. Atrof-muhitni boshqarish muammolarining hozirgi holati, standartlarni tahlil qilish,

4-mavzu. Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi va ekologik siyosati. Texnogen xavflarning atrof-muhitga ta'sirini baholash. Texnogen va ekologik xavf

ko'rsatkichlarini baholashning uslubiy asoslari. Ekologik va texnogen xavf. To'g'ridan-to'g'ri va bilvosita atrof-muhit va texnogen zarar. Xatarlarni tahlil qilish va baholashga 5-mavzu. Korxonalarni ekologik baholashga turlicha yondashuvlar. Baholashning turli yondashuvlari va uning bosqichlari. Rejalashtirish bosqichi. Manfaatlarni to'qnashuvi. Kerakli tarmoqlardan misollar: metallurgiya, kimyo sanoati, oziq-ovqat ishlab chiqarish va boshqalar. Agrosanoat kompleksi korxonalarini ishining o'ziga xos xususiyatlari. Sanoatda atrof-muhitni boshqarish. Ishlab chiqarishning ekologik xavfsizligini ta'minlash va tizimlarni joriy etish qobiliyati.

6-mavzu. Ekologik menejment tizimlarini tashkil etish va faoliyat ko'rsatish turlari, ularning korxonaga boshqaruvining umumiy tuzilmasidagi o'rni. Korporativ boshqaruv, uning maqsadlari, vazifalari, ishlash xususiyatlari, uni amalga oshiruvchi tuzilmalar. Korxonaga boshqaruvining umumiy tuzilmasida atrof-muhitni boshqarishning o'rni. Ekologik muammolarni hisobga olish va atrof-muhitni boshqarishning ahamiyati.

7-mavzu. Davlat ekologik nazorati, ekspertizasi va ekologik audit sohalarda qonunchilik. Ekologik to'lovlar, ekologik soliq, korxonalarining reytingi va atrof-muhitga salbiy ta'siri uchun to'lov. Ekologik fondlar shakllanishi, faoliyati muammolari.

8-mavzu. Sanoat ishlab chiqarishda ekologik menejment tizimlari va mintaqaviy rivojlanish sxemalarini optimallashtirish. Murakkab texnogen yuk zonalarini uchun atrof-muhitning tarkibiy qismlariga ta'sirini baholash; atmosfera chiqindilari uchun mintaqaviy kvotalar; tuproq-ekologik standartlar va atrof-muhit sifati ko'rsatkichlarini asoslash. Turli tarmoqlar va hududiy sanoat klasterlariga misollar

9-mavzu. O'zbekistonning ekologik siyosati. Ekologik menejment va audit jarayonida qo'llaniladigan metodlar va prinsiplar. O'zbekistonning ekologik siyosati. Ekologik munosabatlarning maqsadi va mohiyati. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - Ekologik menejment va auditning asosiy manbai

10-mavzu. Davlat hokimiyatining ekologik funksiyalari. Ekologik normativ hujjatlarni amalga tadbiq etish yo'llari. Davlat hokimiyatining (Oliy majlis, Vazirlar Mahkamasi va Sud idoralari) ekologik funksiyalari. Qonunlar-ekologik boshqaruvning manbai sifatida. Qonun osti normativ hujjatlarining ekologik munosabatlarni tartibga solishdagi roli.

11-mavzu Ekologik menejment va auditda dunyo tajribasini qo'llash imkoniyatlari. Rossiya Federatsiyasi, AQSH, Germaniya, Angliya, Yaponiya va Kanada davlatlarida ekologiya huquqi. Xalqaro ekologik tashkilotlar, jamg'armalar va anjumanlar. Xalqaro ekologik javobgarlik.

12-mavzu. Ekologik baholash va kadastrlashning ahamiyati. Yerlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilish. Yer muammolari va ularni yechish yo'llari. Yerlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilishning umumiy qoidalari. Yer muhofazasi va foydalanish ustidan nazorat. Ekologik kadastr Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi.

13-mavzu. Davlat ekologik ekspertizasi Ekologik ekspertiza tushunchasi, mazmuni va mohiyati. Ekologik ekspertiza to'g'risidagi qonunning asosiy maqsadi va vazifalari. Davlat ekologik ekspertizasi. Jamoat ekspertizasi. «Ekologik oqibat arizasi».

14-mavzu Ekologik audit va uning amaliy ahamiyati. Ekologik audit turlari: ishlab chiqarish ekologik ekspertiza; hududiy ekologik ekspertiza; Ekologik auditga ruhsat berish va o'tkazish tartibi.

15-mavzu Ekologik monitoring va nazorat Ekologik monitoring va nazorat maqsadi, vazifalari, obektlari. Ekologik monitoring- ekologik boshqaruv mexanizmining ajralmas bir qismi sifatida. Ekologik nazoratni olib borishning iqtisodiy, ijtimoiy, tabiiy, huquqiy asoslari.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tabiatni muhofaza qilish qonunlari bilan tanishish va muhokama qilish.
2. Ekologik menejment shakllarining sxemasini tuzish.
3. Davlat organlarining ekologik vakolatlari.
4. O'zbekistonda ekologik boshqaruv siyosati.
5. Texnogen va atrof-muhitga yetkazilgan zaraming shakllanishi va turlari.
6. Ekologik monitoring va nazorat
7. Ekologik ekspertiza va ekologik audit.
8. Ekologik menejment va auditning tabiiy resurslardan ratsional foydalanishdagi ahamiyati
9. Ilg'or xalqaro ekotexnologiyalar va xalqaro tajriba
10. Biologik xilma-xillikni asrash muammolari
11. Atrof-tabiiy muhitni huquqiy muhofaza qilish zarurati
12. Qonunlar-ekologik boshqaruvning manbayi sifatida.
13. Qonun osti normativ hujjatlarining ekologik munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati
14. Jahon ekologik boshqaruv tajribalari, umumiy jihatlari va o'ziga xosligi
15. Ekologik boshqaruvda ekologik ekspertiza va kadastrning ahamiyati

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Global ekologik xavflar
2. O'zbekistonda atmosferani muhofaza qilish muammolar.
3. Suv va suvdan foydalanish muammolari
4. Texnogen va atrof-muhitga etkazilgan zaraming shakllanishi va turlari.
5. Ekologik avariylarning sabablari
6. Texnogen va ekologik xavflarni boshqarishda davlatning vazifalari
7. Tabiiy muhit sifatini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlari.
8. Texnogen va ekologik xavfsizlikni boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari
9. Tuproqning biosfera va inson hayotidagi ahamiyati.
10. O'zbekistonning yer resurlaridan foydalanish muammolari
11. Biologik xilma-xillikni asrash muammolari
12. Ekologik ekspertiza va ekologik audit tushunchasi
13. Aloxida muhofaza qilinadigan xududlar
14. O'zbekiston Respublikasida tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish muammolari.
15. Antropogen omilning biosfera evolyusiyasiga ta'siri

“Ekologik menejment va audit” fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritishga qaratilgan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, ushbu mavzu haqida keyingi tadqiqotlar olib borgan ilmiy faoliyat natijalari ham keng ma'lumotlar berib, ular haqida ham o'quvchilar bilim ko'nikmasiga ega bo'ladi. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzulami har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari

Talaba bilishi kerak:

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Ekologik menejment tizimlarini tashkil etish, ekologik audit o'tkazish, korxonalarining atrof-muhitga ta'sirini baholash va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha amaliy va nazariy bilimlarga ega bo'ladi.

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
 - guruhlarda ishlash;
 - individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar

Kreditni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mtishohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifatopshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

Asosiy adabiyotlar

1. Shonazarova G.B. Ekologik menejment. Darslik. - T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021, 352 bet.
2. Nigmatov A.N., Muxamedov Sh.N., Kamolov B. Ekologik boshqaruv. Monografiya. Toshkent, 2015, 144 bet.
3. Струкова М.Н. Экологический менеджмент и аудит: [учеб, пособие] / Струкова М.Н., Струкова Л.В.; [науч. ред. М.Г. Шишов]; М-во образования и науки рос. Федерации, Урал, федер. ун-т. -Екатеринбург: Изд-во Урал, унта, 2016. - 80 с.
4. Экологический менеджмент и маркетинг [Электронный ресурс] / Э.Н. Елаев - Улан-Удэ: Бурятский государственный университет, 2013.-182 с. - Режим доступа: <https://rucont.ru/efd/229621>

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 2017
2. Buriyev S.S., Maxkamova D.A., Sherimbetov V.X. Ekologiya va atrofmuhit muhofazasi. Toshkent. 2020 yil.

Axborot manbalari

1. www.ziyonet.uz
2. www.uznature.uz
3. www.lex.uz

O'quv dasturi Navoiy davlat universitetida ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025 yil "30" avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Fan/modul uchun mas'ul

Navoiy davlat universiteti, "Biologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi b.f.f.d PhD Xasanov Nodir Hamrokulovich 

Taqrizchilar

T.S.Kanatbayeva – Navoiy davlat universiteti, "Biologiya" kafedrasida dotsenti
F.Jalilov – O'zbekiston Finlandiya pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya va geografiya kafedrasida v/b dotsenti

Kafedra mudiri



prof: A.J.Kushakov

№ _____